Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida innovatsion yondashuv asosida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimining hozirgi holati ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish hamda normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Shu bilan birga, talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona ilmiy-metodik tizim hali to'liq shakllanmagani qayd etildi. Boshqaruv kompetensiyalarini baholash mezonlari, diagnostika vositalari va monitoring mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ilmiy asoslandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimining mavjud holatini kompleks baholash va uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashdan iborat.

Kalit so'zlar: boshqaruv malakasi, innovatsion yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, oliy ta'lim, ta'lim menejmenti, boshqaruv kompetensiyasi, pedagogik texnologiyalar, Project-Based Learning, raqamli ta'lim, kredit-modul tizimi.

Abstract: This article presents a scientific analysis of the current state of the system for developing students' management skills based on an innovative approach in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan. The research employed a systems approach, comparative analysis, analysis of scientific and pedagogical literature, and the study of regulatory and legal documents. The findings indicate that the competency-based approach, the credit-module system, and digital educational technologies are being gradually implemented in higher education institutions. However, a comprehensive scientific and methodological system for the systematic development of students' management skills has not yet been fully established. The scientific novelty of the research lies in the comprehensive evaluation of the current state of the management skills development system and the identification of its priority areas for improvement.

Key words: innovative approach, management skills, management competence, competency-based approach, higher education, educational management, pedagogical technologies, interactive learning, Project-Based Learning, digital education.

Аннотация: В статье проведён научный анализ современного состояния системы развития управленческих навыков студентов на основе инновационного подхода в высших образовательных учреждениях Республики Узбекистан. В исследовании использованы методы системного подхода, сравнительного анализа, анализа научно-педагогической литературы и изучения нормативно-правовых документов. Результаты исследования показали, что в системе высшего образования последовательно внедряются компетентностный подход, кредитно-модульная система и цифровые образовательные технологии. Вместе с тем установлено, что единая научно-методическая система развития управленческих навыков студентов ещё не сформирована в полной мере. Научная новизна исследования заключается в комплексной оценке современного состояния системы развития управленческих навыков студентов и определении приоритетных направлений её совершенствования.

Ключевые слова: управленческие навыки, инновационный подход, компетентностный подход, высшее образование, образовательный менеджмент, управленческая компетентность, педагогические технологии, Project-Based Learning, цифровое образование, кредитно-модульная система.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim sifati jamiyatning barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi ^[4, 5]. Oliy ta'lim tizimi oldida nafaqat kasbiy bilimlarga ega mutaxassislarini, balki strategik fikrlay oladigan, samarali qaror qabul qiladigan, jamoani boshqarish va o'z faoliyatini rejalashtirish kompetensiyalariga ega shaxslarni tayyorlash



vazifasi turibdi ^[1, 2, 10]. Shu sababli talabalarning boshqaruv malakalarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.¹

Innovatsion yondashuv ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini, jumladan, maqsad, mazmun, metod, vosita va tashkiliy shakllarni zamonaviy talablar asosida yangilashni nazarda tutadi. Mazkur yondashuv talabalarning faqat nazariy bilimlarni egallashiga emas, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish, muammolarni tahlil qilish va amaliy faoliyatda samarali qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi ^[7, 8, 10]. Natijada ta'lim jarayoni bilimlarni o'zlashtirishdan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan uzluksiz rivojlanish tizimiga aylanadi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash tobora kengayib bormoqda. Raqamli ta'lim vositalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning), muammoli ta'lim, keys texnologiyalari va tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuvlar talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida qaralmoqda. Mazkur texnologiyalar talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirib, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshqaruv malakalarini rivojlantirish jarayoni tizimli va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Dastlab nazariy tayyorgarlik orqali boshqaruv faoliyatining mazmuni, tamoyillari va zamonaviy konsepsiyalari o'zlashtiriladi. Keyingi bosqichda interfaol mashg'ulotlar, biznes o'yinlari, loyiha ishlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va amaliy vaziyatlarni modellashtirish orqali boshqaruv ko'nikmalari mustahkamlanadi. Yakuniy bosqich esa talabalarning real boshqaruv faoliyatiga yaqinlashtirilgan vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashi bilan tavsiflanadi ^[8, 9, 10].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari so'nggi yillarda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda ^[4]. Mazkur tadqiqotlarda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari, kompetensiyaviy yondashuvning pedagogik imkoniyatlari hamda innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi turli nuqtai nazardan yoritilgan.

Xorijiy olim Benjamin Bloom tomonidan ishlab chiqilgan o'quv maqsadlari taksonomiyasi bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv boshqaruv malakalarini shakllantirish uchun muhim nazariy asos bo'lsa-da, unda boshqaruv kompetensiyalarini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyalash masalalari yetarlicha yoritilmagan ^[7].

David Kolb tajribaviy ta'lim konsepsiyasida bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyat orqali egallash mexanizmlarini asoslab bergan. Mazkur yondashuv boshqaruv malakalarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos yaratadi, biroq oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv kompetensiyalarini tizimli rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlarini to'liq ochib bermaydi.

Peter Senge "o'rganuvchi tashkilot" konsepsiyasida uzluksiz rivojlanish, jamoaviy o'rganish va tizimli fikrlashning boshqaruv faoliyatidagi ahamiyatini asoslagan. Biroq uning tadqiqotlari asosan tashkilotlar faoliyatiga yo'naltirilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv malakalarini shakllantirish metodikasi alohida tadqiq etilmagan.

Michael Fullan ta'limdagi innovatsion o'zgarishlarni boshqarishning strategik omillarini tahlil qilib, innovatsion muhitni shakllantirishning ta'lim sifatiga ta'sirini asoslagan. Shu bilan birga, uning ilmiy qarashlarida boshqaruv malakalarini baholash mezonlari va diagnostik mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim menejmenti, innovatsion pedagogik texnologiyalar va oliy ta'lim sifatini oshirish masalalari keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, kredit-modul tizimini takomillashtirish, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish hamda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari asoslangan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida boshqaruv malakalari umumiy kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida yoritilgan bo'lib, ularni aynan innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning hozirgi holatini kompleks baholash, mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish hamda ularni bartaraf etishning ilmiy-amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekiston olimlari tomonidan boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim menejmentini takomillashtirish va liderlik sifatlarini shakllantirish masalalari turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Xususan, Akmal Miravaz o'g'li o'zining "Liderlik" asarida zamonaviy rahbarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda jamoani samarali boshqarishning nazariy asoslarini yoritadi. Muallif liderlikni sama-

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-5847-son Farmon. – 2019-yil 8-oktabr. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637. – Toshkent, 2020.

rali boshqaruvning muhim omili sifatida baholaydi, biroq talabalarda mazkur kompetensiyalarni innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida rivojlantirish mexanizmlarini alohida ko'rib chiqmaydi.

H.T. Ahmadxo'jayev, K.M. Mirdadayev va O.S. Qozoqov tomonidan yaratilgan "Menejment va strategiyani boshqarish" nomli o'quv qo'llanmada menejmentning nazariy asoslari, strategik boshqaruv tamoyillari hamda boshqaruv faoliyatining asosiy funksiyalari yoritilgan. Mazkur tadqiqot boshqaruv faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslarini ochib bersa-da, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv malakalarini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida shakllantirish masalasi batafsil tahlil qilinmagan^[11].

N.K. Ahmedova o'z ilmiy ishida rahbar va pedagog xodimlarning ma'naviy salohiyatini oshirishni barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida baholaydi. Muallif ta'lim jarayonida ma'naviy qadriyatlar va kasbiy mas'uliyatni rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Biroq tadqiqotda boshqaruv malakalarini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari va amaldagi holati alohida tadqiq etilmagan^[12].

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv malakalarini rivojlantirish bo'yicha nazariy va metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ularni O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida sharoitida innovatsion yondashuv asosida kompleks baholash hamda mavjud holatini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar cheklangan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda innovatsion yondashuv asosida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirishning hozirgi holati kompleks tahlil qilinadi, mavjud ilmiy yondashuvlarning afzallik va cheklovlari qiyosiy baholanadi hamda boshqaruv malakalarini rivojlantirish jarayonida uchrayotgan muammolar muallif nuqtai nazaridan tizimli tahlil qilinadi.

Mavjud ilmiy ishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, Project-Based Learning, Case Study, Team-Based Learning, raqamli ta'lim platformalari va interfaol metodlarning boshqaruv kompetensiyalariga ta'siri alohida tadqiq etilgan bo'lsa-da, ularni yagona ilmiy-metodik tizim sifatida integratsiyalash, boshqaruv malakalarini baholash mezonlari va diagnostika mexanizmlarini takomillashtirish masalalari ochiq qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv asosida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimining tarkibiy qismlari va ularning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali mahalliy va xorijiy tajribalar taqqoslanib, innovatsion pedagogik texnologiyalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari baholandi. Shuningdek, ilmiy manbalarni tahlil qilish asosida Project-Based Learning, Case Study, Team-Based Learning, mini-tadqiqot, guruhli muhokama va interfaol ta'lim metodlarining pedagogik imkoniyatlari o'rganildi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimining mavjud holati, asosiy muammolari va uni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion yondashuvni samarali amalga oshirishda interfaol ta'lim texnologiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikda o'qitish, guruhli muhokamalar, rol o'yinlari, treninglar, mini-tadqiqotlar va keys tahlillari talabalarning kommunikativ kompetensiyalari, liderlik qobiliyati, tanqidiy va tizimli fikrlashini rivojlantiradi. Bunday metodlar orqali talabalar boshqaruv faoliyatiga xos vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va jamoaviy qarorlar qabul qilish tajribasiga ega bo'ladilar^[10].

Talabalarning loyiha va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etilishi ham boshqaruv malakalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biridir. Loyiha faoliyati davomida talaba maqsadni belgilash, vazifalarni rejalashtirish, resurslarni taqsimlash, natijalarni monitoring qilish va yakuniy baholash jarayonlarida faol ishtirok etadi. Bu esa uning tashkiliy, analitik va boshqaruv kompetensiyalarining kompleks rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy tadqiqotlar boshqaruv malakalarini rivojlantirishning alohida jihatlarni yoritgan bo'lsa-da, ularni innovatsion yondashuv asosida yagona ilmiy-metodik tizim sifatida takomillashtirish masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqot aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mini-tadqiqot metodi esa talabalarning ilmiy-tahliliy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metod asosida talabalar muammoni aniqlash, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, ilmiy farazlarni ilgari surish hamda ularni dalillar asosida asoslash ko'nikmalarini egallaydilar. Bunday faoliyat boshqaruv qarorlarini qabul qilishda zarur bo'lgan analitik fikrlash, axborotni qayta ishlash va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi.



Keys usuli (Case Study) boshqaruv malakalarini shakllantirishning eng samarali interfaol metodlaridan biri hisoblanadi. Ushbu metod real yoki modellashtirilgan boshqaruv vaziyatlarini tahlil qilish orqali talabalarning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash imkonini yaratadi. Keyslarni yechish jarayonida talabalar muammolarni aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish, ularni qiyosiy baholash va eng maqbul boshqaruv qarorini tanlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu jihatdan mazkur metod tanqidiy fikrlash, strategik rejalashtirish va innovatsion yondashuv asosida qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Guruhli muhokama va hamkorlikda o'qitish texnologiyalari talabalarni jamoada ishlashga, fikr almashishga va umumiy maqsad sari birgalikda harakat qilishga o'rgatadi. Bunday faoliyat davomida mas'uliyatni taqsimlash, hamkorlikni yo'lga qo'yish, nizolarni bartaraf etish va jamoaviy qaror qabul qilish kabi boshqaruv faoliyatining muhim elementlari rivojlanadi. Natijada talabalarda nafaqat kommunikativ kompetensiyalar, balki ijtimoiy va tashkiliy boshqaruv malakalari ham shakllanadi.


Interfaol ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik faoliyati ham yangi mazmun kasb etadi. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchi bilimlarni tayyor holda beruvchi subyekt emas, balki ta'lim jarayonini loyihalashtiruvchi, tashkil etuvchi va muvofiqlashtiruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. U talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi, muammoli vaziyatlarni yaratadi, o'quv jarayonini boshqaradi va refleksiv tahlilni tashkil etadi. Natijada talabalar o'z ta'lim faoliyatini mustaqil boshqarish, o'z-o'zini baholash va uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyalarni egallaydilar [10].

Ularni boshqaruv malakalarini rivojlantirishning yagona pedagogik tizimi sifatida o'zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, rolli o'yinlar, keys usuli, mini-tadqiqotlar va guruhli hamkorlik metodlarini loyiha faoliyati hamda refleksiv baholash bilan uyg'unlashtirish talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois interfaol ta'lim shakllari zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv malakalarini rivojlantirishning eng muhim pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilishi mumkin.

1-jadval: Oliy ta'limda boshqaruv malakalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar²

Omillar	Mavjud holat	Muammolar
Kompetensiyaviy yondashuv	Joriy etilgan	Amaliy integratsiya yetarli emas
Interfaol metodlar	Qo'llanilmoqda	Barcha fanlarda tizimli emas
Raqamli texnologiyalar	Rivojlanmoqda	Pedagoglarning tayyorgarligi turlicha
Baholash tizimi	Mavjud	Maxsus boshqaruv indikatorlari ishlab chiqilmagan

Boshqaruv malakalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar



Manba: Oliy ta'lim muassasalari faoliyati tahlili va ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

1-rasm: Boshqaruv malakalarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

2 Muallif tomonidan ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqildi

Mazkur tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tizimli yondashuv orqali talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimining tarkibiy elementlari o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida xorijiy va mahalliy tajribalar taqqoslanib, ularning afzalliklari hamda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llash imkoniyatlari baholandi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlili tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlashtirish hamda zamonaviy ta'lim siyosati bilan uyg'unligini asoslashga xizmat qildi. Olingan natijalar umumlashtirilib, talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.³

Diagramma tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv eng muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, interfaol metodlar va raqamli ta'lim texnologiyalari boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Amaliyot va loyiha faoliyati nazariy bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilsa, monitoring va baholash tizimini takomillashtirish boshqaruv malakalarini rivojlantirish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa va takliflar tariqasida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruv malakalarini rivojlantirish bo'yicha muayyan ijobiy natijalarga erishilgan. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv, kredit-modul tizimi, interfaol ta'lim metodlari va raqamli ta'lim texnologiyalarining joriy etilishi boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Biroq boshqaruv malakalarini rivojlantirishning yagona ilmiy-metodik tizimi, baholash mezonlari va monitoring mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi mazkur jarayon samaradorligini cheklamoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- boshqaruv malakalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompetensiyaviy o'quv dasturlarini takomillashtirish;
- interfaol ta'lim metodlari, loyiha faoliyati va raqamli pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'lamini kengaytirish;
- boshqaruv kompetensiyalarini baholashning ilmiy asoslangan mezonlari va diagnostik vositalarini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonida refleksiv baholash va muntazam monitoring tizimini joriy etish;
- pedagoglarning innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish.

Taklif etilgan yo'nalishlarni amaliyotga joriy etish talabalarning boshqaruv malakalarini samarali rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish hamda mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida: PF-5847-son Farmoni. - Toshkent, 2019-yil 8-oktabr.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. - Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari (amaldagi tahrir). - Toshkent.
4. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. - Paris: UNESCO, 2021.
5. OECD. Education at a Glance 2024: OECD Indicators. - Paris: OECD Publishing, 2024.
6. World Bank. The State of Global Learning Poverty: 2022 Update. - Washington, DC: World Bank, 2022.
7. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: Handbook I. Cognitive Domain. - New York: Longmans, Green and Co., 1956.
8. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. 2nd ed. - Upper Saddle River, NJ: Pearson Education, 2015.
9. Senge P.M. The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. Revised and Updated Edition. - New York: Doubleday, 2006.
10. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. - New York: Teachers College Press, 2020.
11. Ahmadxo'jayev H.T., Mirdadayev K.M., Qozoqov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. - Toshkent: Ilm Ziyov, 2004.
12. Ahmedova N.K. Rahbar va pedagog xodim ma'naviyatini oshirish - mukammal shaxs kamolotini ta'minlash omilidir // Milliy g'oya... - Toshkent, 2009.

³ Muallif tomonidan ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili asosida ishlab chiqildi

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.